NEMIS TILIDA FRAZEOLOGIK SINONIMLARNING STRUKTURASI VA SINONIMIK HAMDA VARIANTLIK XUSUSIYATLARI

Imyaminova Shuhratxon
Professor
O‘zbekiston Milliy Universiteti
Email: rumrreich@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada nemis tilidagi frazeologik sinonimlarning strukturaviy tuzilishi va sinonimik xususiyatlari va ularni o‘zbek tilida ifodalanishi imkoniyatlari to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Maqolada nemis tilidagi strukturaviy frazeologik sinonimlarning kelib chiqish tarixiga ham to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologiya, frazeologizm, frazeologik sinonim, strukturaviy frazeologizm, so‘z boyligi, xususiyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются структурное строение и синонимические особенности фразеологических синонимов немецкого языка, а также возможности их передачи на узбекском языке. В работе также уделяется внимание истории возникновения структурных фразеологических синонимов в немецком языке.

Ключевые слова: Фразеология, фразеологизм, фразеологический синоним, структурний фразеологизм, богатство слов, особенность.

Abstract: This article discusses the structural composition and synonymic features of phraseological synonyms in the German language, as well as the possibilities of their rendering in Uzbek. The study also touches upon the historical development of structural phraseological synonyms in German.

Keywords: phraseology**,** idiom, phraseological synonym structural phraseological unit, lexical richness, characteristic.

Frazeologik sinonomiya deganda ma’nodosh va ma’no jihatdan o‘xshash frazeologizmlar tushuniladi. Ular paradigmatik darajalar bilan birgalikda farqlovchi xususiyatga ham ega bo‘ladi.

Frazeologik sinonomiya nemis frazeologiyasining mahsuldor va muhim kategoriyalaridan biridir. Bu lingvistik maqomga ega barqaror so‘z birikmalar guruhiga mansubdir. Uning konotativ ma’nosi bir nechta so‘zli tarkibiy qismlardan tashkil topgan bo‘lib, doimiy ravishda yangi frazeologizmlarni yuzaga keltiradi va tilning sinonomik qatlamini to‘ldirib boradi. Frazeologik sinonomiya leksikdagi kabi xususiyatlarga ega:

A) **ma’nodosh,** masalan: *das Pferd beim Schwanz aufzäumen – den Aal beim Schwanz fassen* „eine Sache verkehrt anfangen“– ishni teskarisidan (aksidan) boshlamoq; o‘z-o‘ziga dahmaza orttirmoq.

B) **ideografik** masalan: *einen Affen [sitzen] haben* „betrunken sein““ (маст-аласт бўлмоқ) - *einen (kleinen) Aal haben* „leicht betrunken sein“ (sarmast bo‘lmoq).

C) **stilistik**, masalan: *die Augen schließen*, (дунёдан кўз юммоқ), *ins Gras beißen*, salopp, derb „sterben“ (o‘lmoq, vafot etmoq, jon bermoq, yer tishlamoq).

D) **ma’lum bir hududga xos**: mintaqaviy, hududiy, masalan: schwäb. *Dear haut nix äs Läus,* und *dia send krank* gemeind. *arm sein wie eine Kirchenmaus* (bir tiyini ham yo‘q, cho‘ntagida hemiri ham bo‘lmaslik).

Frazeologik sinonomiyaning leksik sinonomiyaga qaragandagi mukammal xususiyati shundaki, undagi ma’nodosh sinonimlar salmoqli miqdorni tashkil qiladi. Ular sintagmatik darajada bir-biriga o‘xshash bo‘ladi va shuning uchun ham ular mutlaq sinonimlar deb nomlanadi. Shunday ekan, mutlaq sinonimlar deganda ma’no va uslubiy belgilanmaslik nuqtai nazaridan bir xil bo‘lgan frazeologizmlar tushuniladi. Shakliy jihatdan ular frazeologik sinonimlarning boshqa barcha turlariga xos xususiyatlarga ega: A) bir xil strukturali frazeologik sinonimlar, masalan: *in die Pilze gehen, in die Nüsse gehen; in die Binsen gehen,in die Wicken gehen* – „verloren gehen, verschwinden“ ertrinken und verderben" – dom daraksiz yo‘qolib ketmoq. B) har xil strukturali frazeologik sinonimlar, masalan: *einen Vogel haben, bei dem piept's wohl, nicht alle Tassen im Schrank haben, bei jmdm. spukt es im Kopf* – “nicht recht bei Verstand sein” – aqldan ozgan bo‘lmoq. Yoki masalan, *leeres Stroh dreschen. Holz in den Wald tragen, Wasser im Siebe tragen, Wasser mit einem Sieb schöpfen* - „vergebliche, unnütze Arbeit tun“ – bekorchi ish bilan shug‘ullanmoq.

Nemis tilida strukturaviy sinonimlar ham mavjud va bunday sinonimlar ko‘p miqdorni tashkil etadi. Genetik mezonlarga ko‘ra bunday frazeologizmlarning ikki turi mavjud. Ulardan biriga quyidagi frazeologizmlar kiradi: 1. Metaforik o‘zgarish natijasida turli xil verbal so‘z birikmalaridan tashkil topgan frazeologizmlar masalan, *in die Pilze gehen* (dom-daraksiz yo‘qolmoq) kabi birikmalar. Leksikogrfik manbalarga ko‘ra ushbu qatorga mansub eng qadimgi sinonimlardan biri bo’lgan *in die Pilze gehen* (XVII asrga mansub) frazeologizmning ma’nosi qo‘ziqorin izlovchilarining o‘rmonda adashib qolish holati bilan qiyoslash asosida yuzaga kelgan.

XIX asrga mansub frazeologik sinonimlar tahminlarga ko‘ra ovchilar tiildan kelib chiqqan, bunga esa itdan qochayotgan yovvoyi o‘rdak suvga tushib qutilgan va qamishzor orasiga berkinganligi sabab bo‘lgan. Shu bilan ovchilar o‘rdaklarni yovvoyi o‘tlar orasiga kirib ketgan va ularning chirmashib ketgan poyalar va shoxlar orasidan topib bo‘lmaydigan hayvonni yo‘qotgandek, uni ham topa olishmaydi. Natijada ushbu qatorda bir-biridan mustaqil va til rivojlanishining turli davrlarida yuzaga kelgan turli xil frazeologizmlar mavjud. Bu turning ikkinchi guruhiga esa frazeologizmlarning bir yoki bir nechta tarkibiy qismlarini almashtirish imkoniyati asosida shakllangan sinonimlar kiradi. Bu turdagi sinonimlar guruhiga quyidagilarni eng ko‘p ishlatiladiganlarini misol qilib ko‘rsatish mumkin: Masalan: *jmdm. geht ein Licht auf, jmdm. geht ein Seifensieder auf* – „jmd. versteht, durchschaut plötzlich etw“ “ko‘zlari moshdek ochilmoq” – biror narsani to‘satdan tushunib yetish, anglab olish.

Bunday sinonimik qatlamda hazil ohangni yoki ifoda kuchini oshirish maqsadida bir frazeologik birlikning turlicha ekanini uchratish mumkin. Masalan: *alter Mann (od. alte Oma) ist doch kein D-Zug, alter Mann (od. alte Oma) ist doch kein Düsenjager* - „ich kann nicht so schnell wie du möchtest“ (men senga o‘xshab bunchalik tez yura olmayman).

O‘zgaruvchan komponentlarga ega strukturaviy frazeologik sinonimlar ayniqsa, semantik va vazifadosh xususiyatini yaqqol ochib beradi va tilning frazeologik boyligi shu yo‘l bilan doimiy ravishda boyib borishiga sabab bo‘ladi. “Aqldan ozgan bo‘lmoq” kabi frazeologizmni asosiy ma’noga ega bo‘lgan sinonimik qator bilan taqqoslagan holda, shuni ta’kidlash mumkinki, u zamonaviy tilshunoslikda o‘nlab og‘zaki uslubdagi sinonimlarni o‘z ichiga oladi va doimiy ravishda yangi sinonimlar hamda ularning yangi variantlari bilan boyib boradi. Masalan: *nicht alle Lichter am Baum haben (aqli joyida bo‘lmaslik – yoshlarga xos zamonaviy til uslubi),* Jugenddeutsch, und das ältere Synonym *nicht alle auf dem Christbaum haben (aqldan ozgan, telba – eskiroq varianti).*

“Strukturaviy sinonimlar” atamasi hanuzgacha ilmiy adabiyotlarda munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Bu kabi birikmalar sinonimmi yoki variantmi shuni aniqlab olish lozim. Fikrimizcha, komponentlari o‘rin almasha oladigan frazeologik birikmalar ba’zida sinonim, ba’zida esa variant sifatida baholanadi – bu esa ularni almashtirish ma’noga va funksiyaga qanday ta’sir ko‘rsatishiga bog‘liq. Agar tarkibiy qismlarning o‘rin almashtirilishi asosiy birlik bilan solishtirilganda semantik, uslubiy yoki hududiy tafovutni yuzaga keltirsa, bu holatda to‘liq asos bilan ularni sinonimlar deb atash mumkin. Shu o‘rinda ishonarli qilib kuyidagi misolni, o‘rin almashtira oladigan, otli komponentlar uslubiy farqlanishlarni yuzaga keltiradigan frazeologizmlarni keltrish mumkin: *den Mund halten*, ugs (neytral shakli), *den Rand halten*, salopp, derb. (juda qo’pol shakli) - –“schweigen“ (og’zini yopmoq). Quyida struktural frazeologik sinonimlarda tarkibiy qism almashtirilishi ifodaviy kuchaytiruvchi va shu bilan birga ma’no jihatdan farqlovchi funksiyani bajaradi: Masalan: *jmdm. fällt ein Stein vom Herzen, jmdm. fällt ein Steinbruch vom Herzen* - „jmd. ist sehr erleichtert über etwas“ (yelkasidan tog‘ ag‘darilmoq – biror bir ishning yengillashishi).

Oxir-oqibatda frazeologizm tarkibiy qismlarning o‘zgarishi hududlarga qarab o‘zgarishi ham mumkin: Masalan: *Nur die allerdümmsten Kälber wählen sich den Schlächter selber* (Sprichw., Gemeinspr.) (adabiy tilda). *Nur die allerdümmsten Kälber wählen sich den Metzger selber* (schwäb., bair.) (Shvabiya va Bavariya dialektida) - qo‘chqor tayoq yegisi kelsa, choponning tayog‘iga suyanadi.

Keltirilgan misollardan shu ayon bo‘ladiki, o‘zgaruvchan tarkibiy qismlar frazeologizmlarning ichki tuzilmasini shakllantiruvchi markaziy elementalr jumlasiga kiradi. Aynan shu omil farqlovchi kuch hosil qiladi va shunday frazeologizmlarni hosil qiladiki, ular

tilga olingan jihatlari bo‘yicha bir-biridan farq qiladi hamda shu mezonlar orqali sinonimlarga qo‘yilgan mezonlarga javob beradi.

Agar tarkibiy qismlarning o‘zgarishi frazeologizmlarning ichki tuzilmasini o‘zgartirmasa, ya’ni iboraning tasviri mohiyatan saqlanib qolsa, u holda ushbu holatga struktural sinonimlar deb emas, balki struktural variantlar deb qaraladi. Bularga otli tarkibiy qismlarning son kategoriyasidagi o‘zgarish, predloglarning (ko‘makchilarning) o‘zgarishi, ayrim frazeologik birikmalarda (juft so‘zlarda) tarkibiy qismlarning o‘rin almashishi va boshqalar kiradi. Masalan: *ein Haar - Haare in der Suppe finden* – tirnoq ostidan kir qidirmoq; *die Hand - die Hände bei etw. im Spiel(e) haben* – biror bir ishda qo’li bor bo’lmoq; *etw. brennt jmdm. auf den Nägeln - etw. brennt jmdm. unter den Nägeln* - ma’nosi: juda zarur bo‘lgan, muhim va shoshilinch masala; *nichts auf den Rippen haben - nichts zwischen den Rippen haben*- ma’nosi: juda ozg‘in bo‘lish; *groß und klein - klein und groß* - katta va kichik; kichik va katta; *auf Leben und Tod- auf Tod und Leben (ma’nosi: nihoyatda jiddiy, hal qiluvchi).*

Frazeologik struktur sinonimlar va variantlarning bu kabi tahlili til bilan birgalikda uyg‘unlashadi, chunki frazeologiyada ma’nodosh sinonimlarning nafaqat miqdori ko‘p, balki bu yo‘l bilan ular doimiy ravishda kengayib boradi. Go‘yoki bir-biriga ziddek tuyulgan ushbu hodisaning sababi shundaki, ma’nodosh sinonimlar semantik uslubiy xususiyat nuqtai nazaridan bir-birini o‘rnini bosa olsa ham, baribir ular bir xil emas. Ushbu sinonim so‘zlari ma’nolarining qanday sabab bilan paydo bo‘laganligi yoki shakli har doim bir biridan farq qiladi. Masalan: *alles über einen Leisten schlagen, alles über einen Kamm scheren, alles in einen Topf werfen* - “alles gleich behandeln und dabei wichtige Unterschiede nicht beachten“ - barchaga bir xil munosabatda bo‘lish. Yoki masalan: *mit jmdm. ein Hühnchen zu rupfen haben, mit jmdm. eine Rübe zu schaben haben, mit jmdm. ein Nüsschen zu knacken haben* - „jmdn. wegen etw. zur Rechenschaft ziehen müssen“ - kim bilandir hisob-kitob qilib olish. Shunday qilib, ma’nodosh frazeologik sinonimlar frazeologizmlarning metaforik asosga ega bo‘lishi jihatidan farqlanadi va aynan shu farqlik paradigmatik xususiyatning saqlanishiga xizmat qiladi. Bundan tashqari, yuqorida keltrilgan sinonimik qatorlar frazeologik sinonimiya yana bir o‘ziga xos jihatini – yani semantik dominant yoki asosiy sinonimning tushib qolganligini ham ko‘rsatadi. Ma’lumki, leksik sinonimlar qatorining asosiy sinonimi ushbu qatorning markaziy bo‘g‘inini tashkil etadi, qolgan sinonimlar esa undan ikkilamchi belgilari orqali farq qiladi. Ko‘pincha bosh sinonim uslubiy jihatdan belgisiz bo‘ladi va uning markaziy xususiyati aynan undan – ya’ni asosiy sinonimdan – yangi va qo‘shma so‘zlarning yasalishi orqali yanada aniqroq namoyon bo‘ladi. Guvohi bo‘lganimizdek, frazeologiyadagi bunday sinonimik qator tuzilmasini yaratishning imkoni yo‘q, chunki barcha frazeologik sinonimlar o‘z semantikasi tufaydi uslubiy jihatdan belgilagan bo‘ladi va bunday qatordan birliklarning o‘zgarmas (invariant) bosh ma’nosi faqat bittta leksik birlik (leksema) asosida aniqlanishi mumkin, bu yondashuvni birinchi marta tilshunos olim Sh. Balli ilgari surgan.

Shunday qilib frazeologik sinonimlar nemis tilida tildagi so‘z boyligini orttirishdan tashqari nutqni jozibali, emotsional va tushunarli hamda fikrni to‘liq bayon qilishda qo‘l keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бинович Л.Э., Гришин Н.Н. Немецко-русский фразеологический словарь. М.: 1975.
2. Имяминова Ш.С. Немис тили фразеологияси. Ўқув қўлланма. –Тошкент: Мумтоз сўз, 2011.
3. Касландзия В.А. Синонимия в немецкой фразеологии. – Москва, 1990.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: 1978.

5. Умарходжаев М., Назаров Қ. Немисча-русча-ўзбекча фразеологик луғат. – Т.: Ўқитувчи,1994.
6. Содиқов М. Краткий узбекско-русский фразеологический словарь. – Т.: Главная редакция Узбекской энциклопедии, 1989.